# ALISHER NAVOIY

# ORAZIN YOPQACH KO'ZUMDIN

UO'K: 821.512.133-1
KBK: 84-5(5O'zb)
N - 14
Navoiy, Alisher

Orazin yopqach ko'zumdin: g'azallar, qit'alar, ruboiylar, tuyuqlar, fardlar/Alisher Navoiy. So'zboshi, izohlar muallifi va to'plab nashrga tayyorlovchi Manzar Abdulxayr. – Toshkent: Zabarjad Media, 2021. –160 b.

ISBN 978-9943-6870-5-9

Alisher Navoiy mumtoz she'riyatimizning deyarli barcha janrlarida barakali ijod qilgan. O'z asarlarida umumbashariy g'oyalarni – hayotning mazmuni, insonning taqdiri, pok axloq va samimiy muhabbat, chinakam do'stlik, vatanparvarlik tuyg'ularini go'zal ifodalagan. Shu bois Navoiy asarlari har qanday davr uchun, har bir avlod uchun o'z ahamiyatini yo'qotmasdan keladi.

O'zbek adabiy tilining bor go'zalligi, nafosati, badiiyati, sehrini ham biz aynan Alisher Navoiy ijodiy merosini o'rganish orqali anglaymiz, his etamiz.

Aziz kitobxon! E'tiboringizga havola etilayotgan mazkur to'plamga ham barchangiz bilgan, barchangiz sevgan, barchangizga yod bo'lib ulgurgan Navoiy ijod gulshanining eng sara namunalarini jamladik, ayrim so'zlarning izohini ham keltirdik. Umid qilamizki, kitob mutolaasidan o'zgacha bir zavq tuyasiz, Navoiyning ruhiy olami bilan qayta yuzlashasiz.

**So'zboshi, izohlar muallifi va**
**to'plab nashrga tayyorlovchi:**
Manzar ABDULXAYR,
filologiya fanlari doktori

ISBN 978-9943-6870-5-9
© Alisher Navoiy, «Orazin yopqach ko'zumdin». «Zabarjad Media», 2021-yil.

## MANGU BARHAYOT SHE'RIYAT

Amir Nizomiddin Alisher Navoiy (844 – 906/1441 – 1501) faqat o'zbek xalqining emas, balki butun turkiy millatlar va elatlarning buyuk shoiri, mutafakkiri sifatida jahon badiiy tafakkuri tarixida yuksak maqomga ega ijodkor sanaladi.

Alisher Navoiy yashab ijod qilgan XV asr – o'zbek mumtoz adabiyoti tarixida oltin davr sifatida e'tirof etiladi. Bundan oldingi yuz yillik o'zbek xalqi davlatchiligi tarixida oltin asr bo'lgan va bunda buyuk Sohibqiron Amir Temurning xizmatlari beqiyos edi. Amir Temir va Temuriylar davrida nainki, Movarounnahr, balki Xurosonda ham ilm-fan va san'at yuksak darajada rivojlandi. Badiiy ijod, xususan, she'riyatda benazir siymolar yetishib chiqdi. Alisher Navoiy «Muhokamat ul-lug'atayn» risolasida bunga alohida urg'u berib, shunday yozgan: *«Hukmronlik tizgini arab va fors sultonlaridan turk xonlari qo'llariga o'tganidan keyin Xalokuxon zamonidan sultoni Sohibqiron Amir Temur Ko'ragon zamoniga qadar turkiy tilda ijod qilgan maqtovga arzigulik shoirlar paydo bo'lmadi. Ammo Sohibqiron Amir Temurning izdosh farzandi Shohruh Sulton hukmronligining oxirigacha turk tilida ijod qilgan bir guruh shoirlar paydo bo'ldilar. Hazratning avlod va nabiralaridan ham iste'dodli sultonlar zuhurga kelishdi. Shoirlardan Sakkokiy, Haydar Xorazmiy, Atoiy, Muqimiy, Yaqiniy, Amiriy va Gadoiylar yashab ijod etdilar»*[1].

XV asrning ikkinchi yarmiga kelib, Alisher Navoiydek daho shoir yetishib chiqishi uchun zarur ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'rifiy zamin shu asno yaratilgandi. Alisher Navoiy o'z oldiga o'zbek tili maqomini tiklash maqsadini qo'ydi. U bejiz ushbu satrlarni yozmagan:

*Turk nazmida chu men tortib alam,*
*Ayladim ul mamlakatni yakqalam.*

[1] Alisher Navoiy. «Muhokamat ul-lug'atayn»/ Vahob Rahmonov tabdili. – Toshkent: «Tafakkur» nashriyoti, 2014. – B. 109-110.

*Adabiy-badiiy nashr*

ALISHER NAVOIY

**ORAZIN YOPQACH KO'ZUMDIN**

*G'azallar, qit'alar, ruboiylar, tuyuqlar, fardlar*

Direktor
Ma'mura QUTLIYEVA

Muharrir
Ma'mura QUTLIYEVA

Badiiy muharrir
Firdavs DO'STMATOV

Musahhih
Hafiza ABDUMALIKOVA

Sahifalovchi
Nigora UMARQULOVA

Texnik muharrir
Hamidulla IBOTOV

Litsenziya raqami: AA № 0009. 2019-yil 6-mayda berilgan.
Bosishga 16.03.2021-yilda ruxsat etildi.
Bichimi 84x108 $^{1/32}$.
Bosma tabog'i 5,0. Shartli bosma tabog'i 8,4.
Garnitura «Cambria». Ofset qog'ozi.
Adadi 3000 nusxa. Buyurtma №76.
Bahosi kelishilgan narxda.

«Zabarjad media» xususiy korxonasida tayyorlandi.
**Murojaat uchun tel:** (97) 409-04-84; (94) 935-00-25

*Facebook: fb.com/zabarjadmedia*
*Instagram: instagram.com/zabarjadmedia*
*Twitter: twitter.com/MediaZabarjad*
*Telegram: t.me/ZabarjadMedia*

«Print Line Group» XK bosmaxonasida chop etildi. 100097, Toshkent shahri, Bunyodkor shohko'chasi, 44-uy